



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No 22
30 ноября

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
7-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-7**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-7**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72а43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-күн тармоқди илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 104 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришининг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзла тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётта жорий этиши йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, счимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммалқосим ўли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда туттани ўрни

Доцент Уринбоев Ҳошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тонбоева Барнохон Одилжоновна(Анлижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамилуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълимни ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

8.Адабиёт

PhD Абдумажида Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодмётда инновацияларниң туттам ўрни

Phd Вохидова Мехри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилярузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарисев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарисев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Аблуқаюм Раҳимберлиевич (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадатиев Аблурасил Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.л., доцент Маматова Нодира Мұхтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жатилов Фазилдин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жатилов Фазилдин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Донент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Каҳҳоров Ўқтам Аблурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзисев

Контакт редакцийи науқчих журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, горад: Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>, Email: info@tadqiqot.uz

Tel: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>, Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

47. Юсупова Ирода Рахматуллаевна	
ROLE OF A TEACHER IN A CLASS	98
48. Allaberdiya Durdona	
"МЕНРОБДАН ЧАЙОН" ASARIDA QO'LLANGAN ARABCHA ИТИМОЙ-СИЮСИЙ ЛЕКСИКА ХУСУСИДА	99
49. Sobirova Dilnoza Rasulevna	
ТИВИЙ REKLAMALarda YO'L QO'YILAYOTGAN GRAMMATIK ХАГОЛАР ХУСУСИДА	101
50. Шералиева Диларом Юлдашевна	
ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА ПИСАТЕЛЯ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ	103



TIBBIY REKLAMALARDA YO'L QO'YILAYOTGAN GRAMMATIK XATOLAR XUSUSIDA

Sobirova Dilnoza Rasulovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
sobirova.2018@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda tibbiyotga oid reklamalar, ularda yo'l qo'yilayotgan grammatik xatolar xususida so'z yuritiladi. Bayon etilgan fikrlar OAVlarda e'lon qilinayotgan tibbiy reklamalar misolida izohlanadi.

Kalit so'zlar: tibbiy reklama, tashqi tibbiy reklama, grammatik xato, uslubiy g'alizlik.

“Reklama menga nima olib kelishini bilmayman. Lekin bir dollar topsam ham, reklamaga sarflayman”, – degan edi biznes olamining buyuklaridan bo'lgan Genri Ford. Haqiqatda iqtisodiyotda, qolaversa, ijtimoiy hayotimizda reklamaning o'rni beqiyos. Reklama aholiga biror bir mahsulot yoki xizmat turi haqida axborot berish, uning afzalligi, imkoniyatlarni tushuntirish demakdir. Bu jarayon til vositasida amalga oshadi. Reklamalar mahsulotni targ'ib qilish asnosida ommaga ma'lum bir axborot yetkazadi. Shu bilan birga, uning ruhiy-intellektual holatiga tezlik bilan ta'sir ko'rsatadi. Ona tilimizning imkoniyatlari ham reklamalarda aks etadi[2, 266].

Biz istaysizmi, yo'qmi har kuni reklamalarga duch kelamiz. Oddiygina misol: televizorni yoqishimiz bilan xilma-xil reklamalarning efirga uzatilayotganining guvohi bo'lamiz. Ular orasida tibbiy reklamalar son jihatdan salmoqli o'rinn egallaydi. E'tiboringizni bir reklama matniga qaratmoqchiman:

“Colgate” tish pastasi reklamasi (I-rasm) matni:

Sen mutlaqo tayyormisan? Uning oilasi bilan tanishishga? Bu muhim voqeaga... Boshqa oddiy tish pastasidan farqli o'laroq yangi “Colgate total”ning ilg'or formulasi tishdagi, tildagi, milkdag'i va lunjdagi bakteriyalarga qarshi kurashadi va o'n ikki soat davomida himoya qiladi.

Sen mutlaqo tayyor bo'lishing uchun – yangi “Colgate total”!

Barchasiga mutlaqo tayyor bo'l!

I-rasm



Ushbu reklamaning ruscha varianti bilan tanishgan kishi matnning to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganini darrov anglaydi. Bunday tarjimada o'zbek tili me'yorlarini chetlab o'tish hollari kuzatiladi. Reklamaning dastlabki jumlalariyoq sintaktik jihatdan g'aliz. Aslida: “Qaylig'ingning(sevgilingning) oilasi bilan tanishishga tayyormisan?” tarzida bo'lishi kerak. Shu o'rinda yana bir jihatga e'tibor qaratishimiz kerak. Reklamalarda mentalitetimizga xos bo'Imagan o'rinnlar mavjud. Ko'pchiligidan o'lamizda hech bo'Imaganda bitta endigina unib-o'sib kelayotgan yosh bola bor. Ularni sinchiklab kuzatsangiz, televizor orqali uzatilayotgan reklama matnlarini osonlik bilan yodlab oladilar. Reklamalar ularning ongiga shu qadar singib ketadiki, reklama boshlanmasdan turib reklama matnini xuddi she'r o'qiyotgandek sharros aytib beradilar. Yuqoridaq kabi reklamalar ularning milliy dunyoqarashiga salbiy ta'sir etishi bilan bir qatorda ona tilining muloqot ko'nikmalarini egallashiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Mana bugun xalqimiz og'ir sinovlarni boshdan kechiryapti. Ming afsuski, tojli virus yurtimizni chetlab o'tgani yo'q. Shunday sharoitda bu jarayon reklamalarda aks etishi tabiiy. Virusdan himoyalanish, uni yuqtirib olganda qanday yo'l tutish lozimligi yuzasidan tavsiyalar ijtimoiy reklamalarda o'z aksini topmoqda. Shunday reklamalarni kuzatar ekanmiz, ularda uslubiy g'alizliklar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. **“Pandemiya sharoitida dafn marosimlarini qanday o'tkazish lozim?”** degan savolga javob beruvchi ijtimoiy reklamada nutq so'zlovchi kishi nutqida qator kamchiliklarni kuzatamiz. Jumladan:



"Vafot etganlarni hurmatini joyiga qo'ygan holda qanday dafn marosimlarini o'tkazish mumkin?" (Aslida "Vafot etganlarning hurmatini joyiga qo'ygan holda dafn marosimlarini qanday o'tkazish mumkin?" tarzida bo'lishi kerak)

"Ko'rishishlikni esa vaqtinchalik tark etishlik kerak";

"G'uslda ishlataligil barcha narsalar yoqib yuborishligi lozim"

"Besh-olti soatga quyosh nurida quritilishligi shart"

"... kelganlar ijtimoiy masofani saglashliklari muhim"

Afsuski, tashqi tibbiy reklamalarda ham imloviy xatolar talayginaligini ko'ramiz (2-rasm).

2-rasm.



Birgina shu peshlavhada "x" va "h" tovushlarining farqlash bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yilgani va bu yozuvda ham aks etganini ("zaxarlanish" deyilgan aslida "zaharlanish" yoki "hoxlaganda" deyilgan aslida "xohlaganda" bo'lishi kerak) ko'rish mumkin. Yoki matnda "jig'ildon qaynash" birikmasi qo'llangan. Aslida "jig'ildon qaynashi" bo'lishi kerak.

Xullas, OAV orqali e'lon qilinayotgan har bir reklamada mavjud til me'yorlariga amal qilinishi lozim. Shuningdek, ularning mentalitetimizga mos kelishi kelajak avlod tarbiyasi uchun g'oyatda muhim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Эшбек Т. Жамоатчилик билан алокалар ва реклама. ЎзМУ. Ўкув кўдланма. Т. 2019.
2. Sobirova D. Tibbiy reklamalarda parafrazalar. "Молодой учёный"// Международный научный журнал. ISSN 2072-0297. 2020. №13 (303), IV часть. С. – 266-267.